

Ona yurti - oltin beshig

TONG yulduzi

№ 31-33
(66468-70)

2004 yil
16 avgust - 22 avgust

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

EZGULIKNING ERTASI ULUG'

Dunyoda shunday azim, shunday bir noyob fazilat, xislat borki, mehrli kishilar uni «himmat» bozorida tekinga ulashadilar. Saxovat deb atashadi uning nomini. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning «Xotamnom» asarida keltirilishicha, yaxshilik dunyodagi eng noyob gavhar misol g'oyat qadrlidir. Agar insonlar qalbida bir-birlariga yaxshilik qilishdek ezgu niyat uyg'onmas ekan, uning o'zi ham kuzgi yaproq kabi qadrsizlanib qoladi.

Mehrga, saxovatga oshno tutinganlarni xalq hamisha ulug'laydi, ardoqlab, boshiga ko'taradi. Qani ular, deysizmi?.. Ular sizni bizning oramizda, biz bilan hamnafas yashamoqdalar. Toshkent viloyatining Parkent tumanida joylashgan Boyqozon

qo'rg'oniga yaqin 3-4 yil ichida bormaganlar bugun uni taniyolmasliklari tayin. Sababi, bu yillar mobaynida Boyqozonda ko'plab xayrli, havas qilsa arzigulik ishlar amalga oshirildi. Tumanimiz ko'rkiga ko'rk qo'shayotgan aholiga xizmat ko'rsatish shaxobchalari, hashamatli inshootlarning bunyod etilishida «Boyqozon» shirkat xo'jaligi rahbari Tohir aka Xoltoyevning hissasi beqiyosdir. «Salohiyat» yoshlar markazi, yangi o'quv yilida ishga tushirilishi kutilayotgan tuman markazida joylashgan 3-maktab binosidagi qayta



ma'nodagi qanotiga aylanib ulgurgan respublikadagi yagona markazdir. Markazdagi futbol stadioni, sport zali va turli to'garaklar yoshlar xizmatida. Ular uchun shunday imkoniyatlar yaratib berayotgan Tohir akadan nafaqat bolalar, balki ularning otanalari ham behad mamnun bo'lishyapti.

Men bu yil tuman markazidagi 1 - o'rta maktabning 9 - sinfini tamomladim. Boshlang'ich sinflarni mahallamiz hududidagi 3-tayanch maktabida o'qiganman. Bundan besh yil muqaddam

ushbu maktabning avariya holatga tushib qolganligi, sport bilan shug'ullanishga sharoitlar yo'qligi, imkoniyatlar chegaralanganligi sabab bo'lib, ota-onam meni boshqa maktabda o'qitishga ahd qilishgandi. Jismoniy tarbiya darslari umuman o'tilmasdi. Fan kabinetlari, kompyuter xonalari haqida esa gap ham bo'lishi mumkinmas.

Informatika darslarini qo'shni 4-o'rta maktabda o'tib kelardik. Xullas, 2-jahon urushi yillarida bolalar uyi bo'lgan ushbu bino yaroqsiz xolatga kelib qolgandi. Mutasaddi amakilarimiz, yangisini quramiz, deb va'da berishardi-yu, ammo...

Istiqlolim - istiqbolim

Nihoyat, mahallamiz bolalarining orzusi ham ushaldi. Bu xayrli ishga ham Tohir akaning o'zlari boshchilik qildilar. Maktab binosi qurilishiga 2003 yilda birinchi g'isht qo'yilgandi. Oradan o'tgan 10 oy mobaynida xaroba maktabimiz o'rnida mahobatli ilm maskani qad rostladi.

Yangi o'quv yili yangi maktabda boshlanadigan kun - 1 Sentyabrni intiq kutayotgan o'quvchilarning ko'zlaridagi quvonchni bir ko'rsangiz edi...

Ha, ezgulikka oshufta insonning qalbidagi bir ezgu niyat sabab bo'lib, bugun saxovat samarasi namoyon ko'z o'ngimizda. Xalqimizda, «Savob ishni har kim, har kuni qilishi kerak», -degan ibratli naql bor. Ezgu ishlarga bel bog'lashdan avval, dilni chog'lamoqlik lozim. Ana shunday saodatga muayassar

bo'lgan Tohir aka Xoltoyevga yoshlarga qanot bo'lajak kelgusi ezgu ishlarida omadlar tilaymiz. Zero, ezgulikning ertasi ulug' bo'lishi tayin.

Sadoqat DADAYEVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
1 - o'rta maktabning 10 - sinf o'quvchisi.



ta'mirlash ishlariga ham Tohir akaning o'zlari bosh-qosh bo'lyaptilar. 2000 yilda qurilishi boshlangan «Salohiyat» yoshlar markazining ochilishi Parkent yoshlari uchun yangi imkoniyatlar tug'dirdi. U yoshlarning chin

Ogohlik - davr talabi

30 iyul kuni

dadam ishdan xomush qaytdilar. Sababini bilsak, shu kuni yurtimizda yana bir terrorchilik harakati amalga oshirilibdi. Bu mudhish voqea bizni yana sergaklikka chorladi. Negadir boshimizga kulfat tushsa, ogohlikni kuchaytiramiz-u, biroz vaqt o'tgach yana xotirjamlikka berilamiz, loqayd bo'lib qolamiz. Qabih niyatli g'alamislar esa payt poylab yana

CHEGARA BILMAYDIGAN OFAT

tinchligimizga rahna solishadi...

Dadamning aytishlaricha, terrorchilar islom dinini niqob qilib olishgan emish. Nahotki, ular o'z-o'zini portlatish, shuningdek, begunoh kishilarning ham umriga zomin bo'lish gunohi azim ekanligini bilishmasa?!

Menimcha, biz o'quvchi-yoshlar dunyoviy bilimlar bilan birga islom dini ta'limotini ham chuqurroq o'qib-o'rganishimiz lozim. Shundagina oq-qoraning farqiga boradigan, nima gunoh-u, nima savob ekanligini anglaydigan insonlar bo'lib kamol topamiz.

Biz - bolajonlar terrorga qarshimiz. Unga butun dunyo qarshi bo'lishi lozim. Chunki u na dinni, na millatni, na hududni va na bir chegarani tan oladi.

Ziyoda MIRZAJONOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
254 - maktabning 5 - sinf o'quvchisi.

Ayni kunlarda «Tong yulduzi» gazetasi uchun obuna qizg'in davom etmoqda. 2004 yilning birinchi yarmiga obuna bo'lgan o'quvchilar avgust oyidan sevimli nashrlari bo'lmish «Tong yulduzi»ga yana obuna bo'lishni unutmaganlar chog'i. Toshkent shahar Xalq Ta'limi Bosh boshqarmasi Metodika markazi metodisti Dilorom opa Yusupova bilan telefon orqali qilgan suhbatimiz ham aynan obuna mavzusida bo'ldi:

-Dilorom opa, Respublika bolalari va o'smirlari gazetasi «Tong yulduzi» uchun obuna davom etayotgani o'zingizga ma'lum. Bu borada qanday rejalar asosida ish olib bormoqdasiz?

-Shahar bo'yicha 2004 yil boshidan 1687ta «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lish rejaga


kiritilgandi. Hozirgi kunga qadar ushbu nashrga 2193 nafar o'quvchi obuna bo'lgan.

Noyabr oyidan esa umumta'lim maktablarini 2005 yil uchun obunaga jalb qilishni rejalashtirib qo'rganmiz. Maqsadimiz - maktablarda har bir sinfni hech bo'lmaganda bittadan «Tong yulduzi» gazetasiga obuna qilish. Shundagina o'quvchilar savodxonligini oshirishda, ma'naviyatini shakllantirishda, qolaversa, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarida ozmi-ko'pmi o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Telefon orqali qilgan qisqacha suhbatimizdan ma'lum bo'ldiki, obuna masalasi nafaqat o'quvchilarning o'zlarini, balki mutasaddi xodimlarning ham diqqat-e'tiborlaridan yiroqda emas ekan.

GULYUZ suhbatlashdi.

QO'NG'IRDQ



BIZ TONG YULDUZLARIMIZ

O'shal oydin kechani eslaysizmi? Yulduzlarnichi? Ular tun bag'rida paydo bo'lgan sirli orzulardir. Bilasizmi, men ularni nimaga o'xshataman? Falakning malikasi - hilolning kanizlariga. Ularni yana... bobo va buvilarimizga, ota-onalarimizga, ustozlarimizga qiyoslagim keladi. Erta tongda, sahar chog'ida porlaydigan yulduzlarni esa sizni bizga o'xshataman. Ulardan taralayotgan yorqin nurlarni 13 yillik mustaqil hayotimiz mobaynida erishgan yutuqlarimiz, yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratish borasidagi samarali mehnatlarimiz mahsuliga o'xshataman.

Bir paytlar ana shu eng yorqin yulduz misol nur taratib turgan insonlar chehrasini qora bulut qoplagandi. Ular yillar davomida soya solib turdi, nomlari yomon otliqqa chiqarildi. Istiqloq sharofati bilan ularning nomlari oqlandi...

Biz tonggi yulduzchalar ana shu ajdodlarimizga munosib «porlab turaylik». Toki nurlarimizni faqat rasadxonalardan turib emas, oddiy ko'z bilan ham payqay olishsin.

Munisa Bonu XOLIQOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
5 - ixtisoslashtirilgan maktabning
10 - sinf o'quvchisi.



«Tong yulduzi» ga
maktablar



Tunov kuni zerikib ketib, dugonam Shohidalarnikiga borgandim. Qarasam, allaqanday matolardan kuchukcha tikib o'tiribdi.

**HAMMA SINFDOSHLARIM
MAKTABDA**

-Iye, tikishni ham o'rganib oldingmi?-so'radim xayratlanib.

-O'rganganda qandoq. Fotima, Mohiralar bilan birga maktabimiz qoshida ochilgan «Yumshoq o'yinchoqlar» to'garagiga a'zo bo'lganmiz. Tikkan o'yinchoqlarimni qara...

Dugonam tikkan mushukcha-yu pingvinlarni ko'rib juda havasim keldi. Ertasi kuniyoq maktabga borib, men ham to'garakka a'zo bo'ldim...

Qarasam, deyarli hamma sinfdoshlarim maktabda yurishibdi. Ayrim dugonalarim zardo'zlik, kashtachilik to'garaklariga qatnashayotgan bo'lsa, Ibrohim, Murod va Alisherlar shaxmat-shashka, tennis to'garaklarida sport bilan muntazam shug'ullanib kelishayotgan ekan.

To'g'risini aytsam, maktabimizni juda sog'ingan ekanman. O'zimiz o'qiydigan sinfga yugurib bordim. Sinf xonamiz chiroyli qilib ta'mirlanibdi. Yo'laklarning ham hali bo'yoqlari qotib ulgurmad. Cho'g'dek qilib bo'yalgan polga oyoq bosgingiz kelmaydi...

Bir so'z bilan aytganda, qardron maktabimiz bizni o'z bag'riga olishga shay turibdi.

Munisa KOMILOVA,
Poytaxtdagi 14 - maktabning
3 - «A» sinf o'quvchisi.

EL FAHSINI

Shaxmat bo'yicha jahon chempioni,
o'zbek o'g'loni Rustam QOSIMJONOVga bag'ishlov.
Shaxmat o'zi shohlar o'yini,
Toj kiymog'lik donolarga xos.
O'zbekimning o'g'lonlariga,
G'olib bo'lmoq qadimdan meros.



Alloh berib aql-zakovat,
Kurashlarda yor bo'ldi zafar.
Buyuk ota-bobolar ruhi,
Farzandlarga yordir muqarrar.

Bayrog'imiz masrur hilpirab,
Madhiyamiz yangrar xorijda.
Yurtboshimiz ezgu tilagi,
Madadkoridir bizga har ishda.

Ey, Rustamjon, mahoratingga,
Aytmoqda el dildan tasanna.
Qo'ling baland bo'lsa bir umr,
Yurt shuhratin tarat doimo.

O'zbek elim hech kimdan kmmas,
Kam bo'lmaydi, deyilgani rost.
Yosh avlodlar zafarlar tomon,
Parvoz eting baland va chapdast.

Muattar HAMRAYEVA,
Toshkentdagi 138 - maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Xorazmdan xabarlar**«BOG'I ERAM»DA****ZUKKOLAR BAXSI**

Tengdoshlarimning ko'pchiligi Toshkent, Samarqand hamda Xorazm viloyatlaridagi so'lim oromgohlarda dam olishyapti.

Urganch shahridagi «Bog'i eram» oromgohi ham ayni kunlarda bolajonlar bilan gavjum. Yo'limiz tushib, oromgohga borgandik, zukkolar bahsining ustidan chiqib qolibmiz. Turli yoshdagi, turli millatli o'g'il-qizlarning quvnoq bellashuvlarini miriqib tomosha qildik. Dam oluvchilar fanlar bo'yicha ham o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishdi, tariximiz va bugungi kunimiz haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashishdi. Ona Vatanni, diyorimizni, baxtiyor bolalikni, do'stlikni tarannum etuvchi kuy va qo'shiqlar kuylashdi.

**ZULFIYA QIZINING
SOVG'ASI**

Onabibi Olamatkarimova Urganch shahridagi 5-son mahalla fuqarolar yig'ini raisi. Ular biz - viloyat o'quvchilar saroyi qoshidagi adabiyot to'garagi a'zolarini har gal ochiq chehra bilan qarshi oladilar. Mahalla keksalari, nogironlar bilan uchrashib, ularga mehr-muruvvatni, saxovatpeshalikni ulug'lovchi she'rlarimizdan namunalar o'qib beramiz. Qo'shiqlar kuylab, yangi chop etilgan kitobchalarimizdan sovg'a qilamiz.

Yaqinda maktabdoshimiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Farog'at Jabborova bilan birgalikdagi uchrashuvimiz juda maroqli o'tdi. Farog'at opa o'zining «Xorazm qizlari», «Yuragimsan Vatan» nomli she'riy to'plamlarini kam ta'minlangan oilalarning farzandlariga sovg'a qildilar.

**BAYRAM FARADDUDI**

Yurtimiz mustaqilligining 13 yilligiga ham sanoqli kunlar qoldi. To'yga to'yona bilan deganlaridek, to'garagimizning har bir a'zosi bayramga o'zgacha hozirlik ko'rmoqdalar. To'garak rahbarimiz Zuhra opa Ro'zmetova boshchiligida «Gulla, yashna O'zbekistonim» mavzuida badiiy musiqali dastur tayyorladik. Unda istiqloq yillarida buyuk o'zgarishlar, biz yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida so'z boradi, sahna ko'rinishlarida ifodalanadi. Bayram dasturimizni tengdoshlarimizga sovg'a qilmoqchimiz.

**SINFIMIZNI****GULLARGA BURKAMIZ**

Hademay yangi o'quv yilini ham boshlab yuboramiz. Barcha maktablarda bo'lgani kabi bizning bilim maskanimizda ham tayyorgarlik avjida. Maktabimizga kirishingiz bilanoq kayfiyatingiz ko'tarilib ketadi. Yo'laklar, sinf xonalarimiz, sport zallarimiz yangi ta'mirdan chiqibdi. Tunov kuni dugonalarim bilan maktabga borib, sinfimiz derazalari va pollarini yuvib keldik. E n d i

yoz bo'yi parvarishlagan gullarimizni olib borib, sinfimizni bezatamiz. Shuningdek, boshlang'ich sinf xonalarini ham gullar bilan bezatishga yordam beramiz. Mahallamiz bolalari ham bizdan o'rnak olib, xonak gullarni parvarishlashyapti.

Shahnoza NAFUJLAYEVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi
16 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

**O'ZIMIZNING DARVOZAMI?..**

Quyoshning tafti tovonni kuydiradigan palla - kun peshindan oqqanda mahallamiz bolalari futbol o'ynashni boshlab yuborishadi. Bugun ham xuddi shunday bo'ldi. O'yin qizigandan-qizidi. Ayniqsa, futbol desa o'zini tomdan tashlaydigan asosiy hujumchi Obidning oyog'i yerga tegmaydi, go'yo. Ikkala jamoa ham hisobda teng - biru bir. Bunday vaziyatda albatta har bir o'yinchida raqiblariga nisbatan raqobat kuchli bo'lib, hamma g'olib bo'lishga intiladi. Shu payt terlab-pishib ketgan Obid, do'stlarining oldidan tezlik bilan to'pni oldi-da, darvoza tomon shitob bilan tepib yubordi. Goll. U quvonganidan qo'llarini baland ko'tarib, sakrab yubordi. Bolalar esa uni olqishlash o'rniga qotib-qotib kulishardi. Keyin bilsa, o'yinga berilib ketganidan o'z darvozasiga to'p kiritib yuborgan ekan. Obid bir zumda qizarib ketdi. Axir shu gol tufayli uning jamoasi yutqazib qo'ydi-da. Do'stlari undan xafa bo'lishmadi, aksincha, bu voqeani eslab haliyam kulib yurishadi.

Shu-shu Obid har safar to'p tepganida o'zimizning darvozamiz emasmikin, deya qarab qo'yadigan bo'ldi. Har holda ehtiyotkorlik yaxshi-da!

Sanobar JUMANOVA,
Alisher Navoiy nomidagi respublika Nafis san'at
litseyining 9- «A» sinf o'quvchisi.

Aziz bolajonlarim, hademay yurtimizda nishonlanadigan eng katta bayramlardan qay birini tantana qilamiz? Mustaqillik bayramini, deysizmi? Ha, barakalla! O'zbekistonimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach bayramlaru tantanalarimiz soni yanada ortganini ham bilasiz-a? Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda mustaqillik bayramining katta xalq sayli tarzida nishonlanishi xalqimizning qadimiy, unutilgan sayllari va bayramlarini tiklashga zamin bo'ldi. «Men doimo xalq sayllariga ehtirom bilan qarardim»-deb yozib qoldirgan edi buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur ham.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan milliy bayramlarining qayta tiklanayotgani xalqimizning ruhini yanada ko'tarib yubordi. Buning zaminida tinchlik, insonparvarlik tuyg'ulari jamuljamdir.

Qayta tiklangan milliy bayramlarimizdan biri - Navro'zimiz bo'lsa, yana biri - Mehrjonimiz istiqloqlning ramzi sifatida yurtimizga kirib kelmoqda. Qadimda oltin kuzning debochasi - mezon oyida qarshi olingan Mehrjon 1990 yildan boshlab diyorimizning ko'pgina viloyat va tumanlarida bayram qilina boshlandi.

Toshkent shahar hokimligi qarori bilan M.Gorkiy nomli madaniyat va istirohat bog'i «Mehrjon» nomini oldi. Toshkentning Chilonzor tumanidagi kattagina mahalla ham Mehrjon deb atala boshladi. O'zingizga ma'lum, hozirgi kunda ko'plab bog'cha va maktablarimizda ham Mehrjon bayramlari o'tkazib kelinyapti.

Navro'z kabi Mehrjon ham milliy bayramlarimiz ichida ommaviy bo'lib, bir necha kun davomida



Ona zaminga, bobo dehqonga ta'zim sifatida nishonlangan. Bu sayl haqida sharq donishmandlarining risolalarida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimdan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan nodir asarida bayon qilinishicha, Mehrjon ham qadimiy Turon, Eron, Rim va

Qadriyat

21 martdan 22 martga o'tar kechasi Navro'z nishonlansa, 23 sentyabrdan 24 sentyabrga o'tar kechasi Mehrjon boshlanadi.

Ota-bobolarimiz Mehrjon kunlarida dala va bog'larga, uzum va qovun sayllariga chiqqanlar, qavm-qarindoshlar birlarini yo'qlaganlar, ehsonlar berganlar, qariyalar, bolalarga

sovg'a-salomlar ulashganlar, qishki ozuqalar g'amlashga kirishganlar, qabristonlarni ziyorat qilib, xas-cho'pdan tozalab, nuragan joylarini suvaganlar. Arazlaganlar yarash-yarash qilib, gina-kuduratni unutishgan. Bozorlarda, saylgohlarda oltin kuz




Afg'oniston xalqlari tomonidan kashf etilib, turmushga singdirilgan urf-odatlar haqida bebaho ma'lumotlar berilgan. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha,

MEHRJON

«Quyosh va Oy falakning ikki ko'zi bo'lganidek, Navro'z va Mehrjon ham zamonning ikki ko'zidir».

Erta bahorda, qishdan ilikuzildi bo'lib chiqqan bir paytda orzu va niyatlar bayon etiladi, Yaratganga iltijolar qilinadi. Mehrjon esa ana shu oliyanob rejalarining shoyon yakuniy ijrosidir. Alloma ikki mavsum haqida hikoya qilarkan, bahor bilan kuzda kun bilan tunning ikki marta teng kelishini yodga soladi. Demak,



KUZ KUNLARI
Kelib qoldi kuz kunlari ham,
Yaproqchalar yopadi izni.
Yana o'sha qadrdon go'sha -
Maktabimiz kutadi bizni.

Paxtazorlar go'yo oq chaman,
Unga boqib ko'zing to'ymaydi.
Bog'lardagi sarxil mevalar,
«Meni ye» deb imlab qo'ymaydi.
Akobir SAIDOV.

ne'matlari savdosi avj olgan, bedana, xo'roz va qo'chqorlar urishtirishgan, polvonlar kuch sinashganlar, askiyabozliklar qizigan. Kun va tunnig tengligi ma'nosida o'sha kuni barcha tabaqa va mansabdagi kishilarning teng ekanligi targ'ib etiladi, podsho, vazir, amaldor shaxslar oddiy kiyimlarda xalq orasida yurib, xursandchilik qilganlar.

Mehrjon - Ona zaminning saxovati, insonga muruvvati, niyatlar ijobati demak. Donishmandlik, yetuklik, shukronalik va saxovat fasli bo'lmish kuzning ham hikmatlari ko'p.

Mehrjon - mehri quyosh, saxovatli insonlar demak.

Ozod zamon, ozod zamin, ozod Vatan shukronalik bayrami - Mehrjonimizning yuksak parvozini ko'rish hali ko'p avlodlarga nasib etajak.



Bilol AMINOV,
tarix fanlari nomzodi, elshunos olim.



MEHRJON

(Qo'shiq)

Ming yillar naridan,
Kitoblar bag'ridan,
Asrtar qaridan
Yetib kelgan bayramim -
Mehrjon! Mehrjon! Mehrjon!

Yurtim bo'ylab kez endi,
El mehrini sez endi,
Faxtingga chiq, tez endi,
Unut bo'lgan bayramim -
Mehrjon! Mehrjon! Mehrjon!

Nuringni to'k bozorga,
Ko'rib, ko'ngil yozarga,
Yo'l bermi dil ozorga.
Baxti kulgan bayramim -
Mehrjon! Mehrjon! Mehrjon!

Uzumlar ishkoni ishkoni,
Olmalarga ko'ngil rom,
Mo'l hosildan so'z, katom.
Yeldek yelgan bayramim -
Mehrjon! Mehrjon! Mehrjon!

Mehr-saxovat ulash,
Baxtu saodat ulash,
Sabru sadoqat ulash.
Aqli to'lgan bayramim -
Mehrjon! Mehrjon! Mehrjon!



Haydar MUHAMMAD.

Aziz o'quvchilar, yangi o'quv yilining boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi-a? Ayni kunlarda har biringiz bu kunga o'zgacha hozirlik ko'rayotgandirsiz.

Sentyabr eshik qoqmoqda

Darsliklar, o'quv qurollari, qo'yingchi, o'qish uchun kerak bo'ladigan barcha narsalaringizni taxt qilib qo'ydingizmi? Juda yaxshi. Orangizda hali darsliklar sotib olishga ulgurilmaganlar bo'lsa, hecham qayg'urmang. Chunki kitob dastalarida siz uchun kerakli barcha anjomlar hali mo'l. Ayniqsa, darsliklarni aytmaysizmi? Ularning bezagini, sifatini ko'rib ko'zingiz quv naydi. Ko'plab nashriyotlar qatori

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «Ijod dunyosi» nashriyot uyi ham sizlar uchun darsliklarning yangi avlodini yaratish, ularni zamonaviy dizayn asosida nashr qilishga katta e'tibor bermoqda. Hozirgi kunda yangi o'quv yili uchun nashriyot tomonidan 20 dan ortiq turli darsliklar, uslubiy qo'llanmalar tayyorlanib, nashr etildi.

O'QUVCHILARGA SOVG'A

M.Umarovning o'zbek tilida o'qitiladigan maktablarning 3-sinfi uchun mo'njallangan «O'qish kitobi» ilmga tashna kichkintoylarga ajoyib sovg'a bo'ldi. Shu sinflarning qozoq hamda turkman tilida o'qiydigan o'g'il-qizlari uchun ham M.Omaralining «Oqu

kitabû», A. Kadirovning «Ene dili» darsliklari nashr etildi.

Maktab o'quvchilari savdo shahobchalarida N.Slombekovanning 7-sinf uchun «Rus tili», H.Ne'matovning 7- va 8-sinflari uchun «Ona tili», N. Shaxmayevning 8-sinf uchun «Fizika», R.Yo'ldoshevning 8-sinf uchun «O'zbek tili», N.Tayloqovning rus maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun «Informatika va hisoblash texnikasi

asoslari» darsliklarini bemalol xarid qilib olishlari mumkin. Bu darsliklarning rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman tillaridagi darsliklari ham nashriyotimiz muharrirlari tomonidan tayyorlab, nashr qilindi.

Ushbu darsliklarni qayerdan sotib olish mumkin, deysizmi? Ularni Toshkent shahrining Navoiy ko'chasidagi yarmarkadan, poytaxtimizning aholi gavjum joylarida, viloyatlar, tumanlar markazlarida tashkil etilgan «Maktab bozor»laridan bemalol sotib olishingiz mumkin.

Umida RAJABOVA,
«Ijod dunyosi» nashriyot uyi
kichik muharriri.



Egizaklarning qarchi tanasi boshqa-boshqa bo'lsa-da, ular birlaridagi kayfiyat yoki og'riqni sezishadi. Agar biri xafa bo'lsa, bi kayfiyat ikkinchisiga ham o'tadi. Birining biror joyi og'riq sal o'tib, ikkinchisi ham og'riqni seza boshlaydi. Bu bir mo'jizami yoki...

Keling, bu haqda yaxshisi Fotimadan so'raymiz:

-Fotima, avvalo tengdoshlaringizga o'zingizni tanishtiring.

-Men Buxoro viloyati, Galaosiy shahridagi 1-maktabning 8-sinfida a'lo baholarga o'qiyman. Sinf rahbarimiz Olima opa Rahmatova bizga har bir ishda bosh-qoshlar. Jamoat ishlari bormi, tadbirlarmi, hamma-hammasiga birgalikda doimo birinchilardan bo'lib «labbay» deb javob beramiz.

-Fotima, siz viloyatda o'tkazilgan «Kitobxonlik» ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni olibsiz. Shu haqda gapirib bersangiz...

-Kitob o'qigan kishining dunyoqarashi kengayadi, keksalar iborasi bilan aytganda, oq-qorani taniydigan, yaxshini-yomondan ajrata oladigan bo'ladi. Men ham ko'p narsalarni bilishga qiziqaman. Shuning uchun ko'p kitob mutolaa qilaman. Tanlovda, «Kitob hayotimizda qanday

o'rin tutadi?», «Kitobxonlikning ahamiyati qanday?» kabi savollarga javob berdik. Yana o'z she'rlarimdan namunalar o'qib berdim. She'rlar, hikoyalar yozishni mashq qilayapman. Yaxshi yozayapman, demaymanu, lekin she'rlarim ko'pchilikka yoqadi. She'rlarim tumanimizda chop etiladigan «Galaosiy ovozi», «Romitannoma», «Buxoronoma», «Yangi asr» gazetalarida chop etildi. Yaqinda «Yosh qalamkashlar» tanlovida 2-o'rinni olishga muvaffaq bo'ldim.

-Ko'proq nimalar haqida yozgingiz keladi?

-Ko'proq tabiat qo'yniga chiqqanimda

she'r yozgim keladi. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, ona tabiat haqida she'rlar yozaman. She'riy mashqlarimni dastlab ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Zulfriya opa Murodovnaga ko'rsataman, kamchiliklarini bilib olaman.

-Fotima, yana nimalarga qiziqasiz?

-Til o'rganishga. Hozir ustozim Mavluda opa Boboyevadan ingliz tilini mukammal o'rganishga harakat qilayapman. Inglizcha kitoblar o'qiyapman. Bu bilan chegaralanib qolmay, boshqa fanlarni ham qiziqib o'rganaman. Masalan, matematikani.

-Ko'pchilik negadir matematika fanini yoqtirmaydi. Siz esa...

-Matematika aqlni teran qiladi.

Buning ustiga u hayotimiz davomida juda kerak bo'ladi.

-Sizlar egizak ekansizlar. Ularni yuz tuzilishidan yana ko'p jihatdan boshqa o'xshash joylari bo'larkan. Masalan, sizni kayfiyatingiz bo'lmasa, u sal o'tib Zuhraga ham ko'chishi mumkin ekan. Shu gap rostmi?

-Ha, agar Zuhraning biror joyi og'rib qolsa, sal o'tib mening ham xuddi o'sha joyim og'riydi. Hatto kayfiyatimiz ham bir xil bo'ladi. Shuning uchun har doim a'lo kayfiyatda yurishga harakat qilamiz.

-Zuhra ham she'rlar yozadimi?

-Yo'q, u menga qaraganda biroz sho'xroq. Sportga qiziqadi. Taekvondo, suzish to'garaklariga qatnashadi.

-Sizlarni adashtirib qo'yishmaydimi?

-Tanish-bilishlarimiz bir qarashdayoq bilishadi. Begonalar albatta qaysi birimiz

bilishadi. Begonalar albatta qaysi birimiz

bilishadi. Begonalar albatta qaysi birimiz

Fotima-yu, qaysimiz Zuhra ekanligimizni so'rashadi.

-Bo'sh vaqtlaringizda nimalar qilasiz?

-Oyijonim «Qiz bola epli bo'lgani yaxshi» degan naqlni ko'p takrorlaydilar. She'r yozish, kitob o'qishlar o'z yo'luga-yu, uy yumushlaridan ham boxabar bo'lib turish kerak. Men ko'proq oyijonimga yordamlashaman. Qo'lim bo'shaganda jajji ko'ylakchalar va kashtalar tikaman.

-Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

-Huquqshunos bo'lmoqchiman. Lekin she'r yozishni tashlamayman.

-Suhbatimiz so'nggida she'rlaringizdan birini o'qib berasizmi?

-Albatta. Men tengdoshlarimga hayot haqidagi to'rtliklarimdan o'qib beraman:

HAYOT SO'QMOQLARI

*Hayotning har oni past-baland so'qmoq,
Uning sinovidan muhmdir o'lmoq.
Aslida yaratgan shunday odamzod,
Birovi g'amgin-u, biri esa shod...*

*Bu dunyo o'tkinchi, demoqlik darkor,
Buncha berahmsan, ey sirti falak,
Dunyoda har qancha yashama bekor,
Bir kunda mag'lubdir hatto kapalak.*

*Olam shoirlari hayot haqida,
Bildilar she'rlar-u, ko'plab aqida.
Insonlar abadiy qolmaydi, ammo,
Mangulik sari ko'z tutgaydir dunyo...*

Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.

EPLI QIZ BOLA



Onalar yozadi

JA'ILDA...



*Azimjon yolg'iz qoldi,
Sho'xtliklari avj oldi.
Daftar-kitobin oldi,
Varaqlarin yo'qoldi.*

*Uymi ko'tarib boshga,
Xo'b qichqirdi u shodan.
«Qo'y» deguvchi kimsa yo'q,
Qo'shnilari lol, hayron.*

*«Askarcha»larin olib,
O'zicha safga terdi.
Va kichik do'stlariga,
Furti buyruqlar berdi.*

*Go'yo komandir misol,
Qovog'in solib oldi.
O'yinab, sakrab, yugurib,
Charchadi - uxlab qoldi.*

*Fushida kitoblari,
Arazlab ketibdilar:
Azim-chi, alam bilan,
«Qayting» deb yig'lab turar.*

*Lekin kitoblar qaytmas,
Undan qaltiq xafamish.
Harflar aslo bo'ysunmas,
Oh! O'qish...? qiyin yumush!*

*Birdaniga telefon,
Qoldi shu choq jiringlab.
«Xayriyat, tushim ekan...»
Azimjon keldi quvnab.*

*O'z xatosin sezdi-yu,
So'ng o'rnidan turdi dast.
Dedi: «Do'stlarim, har on,
Kitob bilan bo'ling do'stl!»*



Cho'iponoy MEYLIQO'ZIYEVA.

YURAGIMDAGI QUYOSH

Ishdan keliboq, tezdagina uy yumushlariga sho'ng'ib ketdim. Shu payt o'g'lim Sardor ko'chadan yugurib kelib:

-Aya, ayajon, -dedi u entikib,- bolalar Otabekni yana o'yinga qo'shishmayapti...

-Nega o'yinga qo'shishmas ekan?- deb so'radim undan.

-Ular-chi, Otabek kambag'al, uni o'yinimizga qo'shmaymiz, -deyishayapti dedi-yu, yig'lab yubordi. Uni yonimga o'tqazdim-da, boshini silab:

-O'g'lim, Otabeklar kambag'al emas, ular ham o'zimizga o'xshagan odam. To'g'ri, mashinasi yo'q, uylari ham hashamatli emas. Lekin bu kambag'al degani emas. Otabek

juda yaxshi bola. Oyisi chaqirishi bilan uyiga chopadi, bozorda arava tortayotgan akasiga qarashadi, maktabda farrosh bo'lib ishlayotgan onasiga doimo yordam beradi. Kitob o'qishni yaxshi ko'radi. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan bola, kelajakda zo'radam bo'ladi, tushundingmi? ..


O'g'limning ko'zlari chaqna ketdi. Shoshgancha ko'chaga, o'rtoqlari yoniga oshiqdi. Deraza yoniga borib kuzatsam, bolalar qo'llarini birma-bir Otabekka uzatishardi...

Mening esa shu tobda yuragimga quyosh kirib olgandek edi.

Ma'mura MADRAHIMOVA.

ENG YAXSHI FOTOSURAT KIMNIKI?

«Aziz o'quvchilar! Sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»ning rangli tasvirlar chiqayotganidan xabarimgiz bor-a? Ushbu chop etilayotgan turli rangdagi fotosurat va rasmlar e'tiboringizni jalb etadigan, ko'zingizni quvlatayotgan bo'lsa, ajabmas. Gazetaning ana shunday rangli suratlarga boy, chiroyli e'tiborida Siz ham o'z hissingizni qo'shishingiz mumkin. Buning uchun o'zingizga yoqqan, betakror betakror lahzalarini ifodalovchi suratlarni tahririyatimizga yuborishingiz kerak. Suratlarda ustozlaringiz o'z qila a'zodatingiz, do'st o'rtoqlaringizdan tortib o'zingiz sevgan uy hayvonlaringiz, hayotingizdagi quvonchli damlarni ifodalovchi lahzalar barcha namoyon bo'lishi mumkin. Ularga tagso'z yozish ham o'z e'tiyoringizda. Finiy va sifatli rangli suratlarni gazetangizning birinchi sahifasida o'lon qilinadi.



So'g yurak - tog' yurak

Biz Nargiza bilan poytaxtdagi «Umid» bolalar sport majmuasida tanishib qoldik. Har bir inson qalbi orzularga limmo-lim bo'lganidek, Nargiza Siddiqovaning ham orzulari bir olam ekan. Uning maqsad yo'lidagi rejalariga quloq solarkanman, tushiqqligi, intiluvchanligiga havas qildim...

Nargiza bu yil Gulistondagi 16-maktabning 9-sinfini tamomladi. Sport bilan muntazam shug'ullanayotganiga ham ikki yildan oshdi. U suv havzasiga birinchi kelgan kunnini shunday xotirlaydi: «Oyim bilan birgalikda murabbiy Olga Petrovnaning yoniga bordik. Ular mendan, suzishni bilasanmi?, deb so'radilar. Yo'q, dedim. «Unday bo'lsa mashg'ulotlarimizga qatnasha olmaysan», - dedilar e'tiborsizlik bilan. Suv ichida baliqdek suzayotgan dugonalarimga rosa havasim keldi. Oyimga, siz ketavering, deb o'zim dugonalarim bilan qoldim. Ishonasizmi, shu kuniyoq suzishni o'rganib oldim. Shundan so'ng murabbiyimiz mashg'ulotlarga kelishimga ruxsat berdilar»...

Sport insondan

«ADOLAT»GA QIZ BO'LAMAN



astoydil mehnatni talab etarkan. Shirin uyqudan kechib, barvaqt uyg'onish, muntazam mashg'ulotlarga qatnash lozim. Hozir men viloyat chempioniman. Sportning sinxrom turi bo'yicha badiiy gimnastika elementlari va duet ko'rinishlarida ko'plab musobaqalarda qatnashib, g'olib bo'ldim. 2003 yili Koreya va Moskvada bo'lib o'tgan katta musobaqalarda 4- o'rin sohibasi bo'ldim. Bugun ko'rib turganingizdek shohsupaga uch marta ko'tarildim. O'zimiz o'ylaganimizdek uchinchi o'ringa sazovor bo'ldik.

men sportchi bo'lishni xohlamayman. **-Natijalaringiz binoiyidek-ku?**

-Maqsadim avvalo sog'-salomat bo'lish va chiniqish. Vaqtimni bekorga o'tkazmaslik. Yana sportchilarda iroda va matonat bo'ladi. Bu narsalar mening ertangi orzularim ijobatiga qo'sh qanot bo'la oladi.

-Orzularingiz bizni ham qiziqtiradi, agar sir bo'lmasa...

-Oilamiz huquqshunoslar oilasi hisoblanadi. Dadam To'liqin aka Siddiqov Farg'ona viloyati prokuraturasida, onam Sofiya opa esa Sirdaryo shahrida sudya bo'lib ishlaydilar. Ularning ishlarini kuzatib, hayotimizni qonunlar izga solib turganligini his etaman. Dunyoda adolat adovatdan ustun ekanligini yaxshi bilaman. Yon atrofimizda uchrab turadigan ba'zi ko'ngilsiz ishlardan xafa bo'lib ketaman. Ayniqsa, oq xalat kiygan ba'zi shifokorlarimiz insonlar hayotiga befarq qaraganlarida, ich-ichimdan ezilaman. Men ulg'aygach el koriga yaraydigan, duolar oladigan adolatli jarroh bo'lmoqchiman...

G'oliblik nashidasi Nargizani yuzlariga juda yarashardi. U qo'lidagi sovg'a-salomlarni ko'targancha dugonalarini tomon oshiqdi. Qizchani o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadlari va unga erishish yo'lidagi intilishlari ko'nglimni ravshan qildi.

Ma'mura YIGITALI qizi.

-Nega birinchi o'ringa emas?

-Buning o'ziga yarasha sababi bor: Mashg'ulotlarni o'z vaqtida o'tolmaymiz. Viloyatda suv tanqisligi katta muammolardan biri hisoblanadi. Lekin qizlarimizning bari mahoratli va tajribali sportchilar. Agar poytaxtlik dugonalarimizdek shart-sharoitlar yetarli bo'lganda edi, birinchi o'rindan umid qila olardik.

-Sizning timsolingizda yurtimizda kamol topayotgan yana bir iqtidorli sportchini ko'ryapmiz.

-Shunday bo'lishi ham mumkin edi. Ammo

QASHQADARYOLIKLAR G'OLIB BO'LISHDI

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan Respublika yosh sayyohatchilar va o'lkashunoslar Markazining tog' sayyohligi bazasi ayni kunlarda bolajonlar bilan gavjum.

Kuni kecha bu maskan yanada gavjumroq bo'ldi. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkillashtirilgan velosayyohlik bo'yicha respublika musobaqasi bo'lib o'tdi. Musobaqani o'tkazishdan asosiy maqsad - o'quvchi-yoshlar o'rtasida velosayyohlikni rivojlantirish, mashg'ulotlarda olgan bilimlarini sinovdan o'tkazish, bo'sh vaqtlarini mazmunli olib borish va O'zbekistonda rivojlanib borayotgan velosportning yanada ommalashuviga zamin yaratishdan iborat edi. Musobaqaning asosiy ishtirokchilari yurtimizning barcha viloyatlaridan kelgan yosh sportchilardir. Ushbu

musobaqa Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida 8-9-sinf o'quvchilari ishtirokida uch bosqichda o'tkazildi.

Qatnashchilar musobaqani Buyuk ipak yo'li bo'ylab sayyohlik yurishlari bilan boshladilar. Musobaqa davomida velosipedda to'siqlardan sakrab o'tish, figurali uchish va xarita bilan tayyorgarlik ko'rish mashqlarini ham bajardilar.

Keyingi 15 yil mobaynida muntazam o'tkazib kelinayotgan bu musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan kelgan jami 50 nafar yosh velosipedchilar qatnashdilar. Mashaqqatli va murakkab musobaqalarda birinchilik qashqadaryolik

o'quvchi-yoshlarga, 2-o'rin andijonliklarga, hamda 3-o'rin farg'onalik yosh sportchilarga nasib etdi.

G'oliblarga Faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi.

Sovrinlarni Respublika yosh sayyohatchilar va o'lkashunoslar Markazi rahbari Ubaydulla Parpiyev topshirdi.

1-o'rin sohiblariga velosiped, 2-

o'ringa uyqu qopi va 3-o'ringa 2 kishilik palatka nasib etdi.

Shunday qilib, umumta'lim maktablari va o'quvchi-yoshlari o'rtasida Buyuk ipak yo'li Marshruti bo'yicha o'tkazilgan Respublika yosh velosayyohlar musobaqasi nihoyasiga yetdi. Ammo joylarda mashg'ulotlar davom etmoqda.

Xurshida BOYMIRZAYEVA.



Ziq'in palladagi yozgi ta'til kunlarini har kim har xil o'tkazmoqda. Kimdir so'lim oromgohlarda dam olsa, yana kimlardir uni uyda, ota-onalari, buva va buvionlari bag'rida o'tkazayпти. Ayrim bolajonlar salomatliklarini mustahkamlash niyatidalar. O'zbekiston respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligiga qarashli salomatlikni tiklash va fiziodavolash ilmiy tekshirish institutida davolanayotgan bolajonlarning ota-onalari bu yerda mehnat qilayotgan qo'li yengil shifokorlar va hamshiralari xizmatidan, ular uchun yaratilgan shart-sharoitlardan behad mamnun bo'lishmoqda. Institut goshida 1984 yil bolalar birlashmasi tashkil qilingan bo'lib, unda o'pka, oshqozon ichak xastaliklari, bo'g'in va asab kasalliklari bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu birlashma tarkibida bolalar poliklinikasi ham mavjud.

Shifo maskani hovlisi saranjom-sarishta, turli rangdagi qiyg'os ochilgan gullar, yam-yashil daraxtlar kishi dilini yayratadi. O'z salomatligini tiklash uchun respublikamizning turli viloyatlaridan yo'llanmalar bilan kelgan bemorlarga ko'rsatilayotgan muolajalar talab darajasida. Katta y o s h d a g i davolanuvchilarga barcha tibbiy xizmat turlari 50 foiz, Afg'on urushi, Chernobil qatnashchilari va bolalarga 100 foiz bepul ravishda ko'rsatilmogda.

Shu kecha-kunduzda ushbu maskanda davolanayotgan 500 dan ortiq bemorning 160 ga yaqinini bolalar tashkil qilar ekan. Ulardan ayrimlarini suhbatga tortdik:

Feruzabonu SOLIYEVA: -Men Buxoro viloyatining Buxoro shahridan kelganman. Surunkali tanzillit kasalligidan qiynalardim.

Shifokorlar va hamshiralarning tunu kun boshimda parvona bo'lib, davolashayotganidan xursandman. Endigina 11



SHIFOKORIMGA RAHMAT!

Inson salomatlikning qadriga bemorlikda yetadi, deganlari rost ekan. Dardingizga barobar sherik bo'lgan insonlarni esa hech qachon unuta olmas ekansiz. Men bu xolatlarni boshimdan o'tkazdim. Betob bo'lib qolganimga, dugonalarim bilan maktabga oshiqqan, birga o'ynab yurgan kunlarimni juda juda sog'indim. Shunday og'ir damlarda shifokorim - «Tibbiyot olami» tashhis markazining fidoiy shifokori Liliya Aleksandrovna Askaryanos hamisha mening yonimda bo'ldilar, ko'nglimni ko'tardilar. Ular meni nafaqat dori-darmon bilan balki shirin so'zlari, mehrlari bilan ham davoladilar, desam mubolag'a qilmagan bo'laman. Liliya opa hamda hamshiramiz Zuhra opa Karimovalarning sa'y-harakatlari bilan oz fursatda oyoqqa turib ketdim. Buning uchun ulardan juda minnatdorman. O'zgalardan yordamini, mehrini ayamaydigan bu insonlarning o'zlariga ham dunyodagi barcha yaxshiliklar hamroh bo'lishini tilayman.

Shifokorim hamda hamshira opamdan tibbiyot sirlarini oz-ozdan o'rganib boryapman. Nasib bo'lsa, kelajakda men ham ulardek qo'li yengil shifokor bo'lmoqchiman.

Nodira MAJIDOVA,

Poytaxtimizdagi 70 - maktabning 4 - sinf o'quvchisi.

yoshga qadam qo'yganman, hali ko'rasiz tez orada batamom tuzalib dugonalarim davrasiga qaytaman.

Ravshanjon RASULJONOV:

Ushbu shifo maskaniga Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumanidan yo'llanma bilan yuborilganman. Asab kasalliklari bo'limida davolanayapman. Sharoitlari

ko'ngildagidek, barcha tibbiy muolajalar o'z vaqtida ko'rsatilmogda. Ko'cha-ko'yda koptok tepib yurgan tengdoshlarimni ko'rsam ularga havasim kelar edi. Hozir ancha tuzalib qoldim. Chunki oq xalati opa-akalarimning barcha

maskanida qariyb 30 yildan buyon mehnat qilib kelayotgan bolalar birlashmasi rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan tibbiyot xodimi, tibbiyot fanlari nomzodi Xolida Umarovadan, bemor bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy muolajalar xususida gapirib berishlarini so'radik.

Bu yerga kelgan bemorlar 16 kun ichida to'liq umumiy biologik-ximik ko'rikdan o'tkaziladi. Ko'z kasalliklari bo'yicha, tishlarni davolash, logoped ko'riklari malakali shifokorlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular umumiy fiziodavolash, balneologiya muolajalarini oladilar. Bundan tashqiri igna bilan davolash, vanna, suv osti dush massaji kabi tibbiy xizmatlar ham ko'rsatilmogda. Birlashmamizda katta suv havzasi bo'lib, bu bolalarning eng sevimli muolajalaridan biridir.

Ushbu shifo maskanida bir necha yillardan

buyon asab kasalliklari bo'limini boshqarib kelayotgan qo'li yengil shifokor Kamol Akromov xususida ko'plab bemorlar o'zlarining iliq fikrlarini bildirib «Dilingdagi xohish-istaklaringni gapirmasindanoq ko'zlarindan anglab oladilar», deyishdi. Darhaqiqat, Kamol aka qariyb 40 yildan buyon ushbu

sohada faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Uning qo'lidagi qanchadan-qancha bemorlar tuzalib o'z oilasi bag'riga qaytgan. Dastlab, Oxunboboyev nomli tibbiyot

bilim yurtida tahsil olgan Kamol aka bilimga chanqoqligi, tirishqoqligi bois Toshkent Davlat tibbiyot institutini ham muvaffaqiyatli tugatadi. «Oraliq miyada gipotalamik xastaligi» bo'yicha nomzodlik disertatsiyasini yoqlagan, yuzlab shogirdlarga munosib ustoz. Chehrasidan nur yog'ilib turgan oq xalati shifokor qabuliga keluvchilar bilan o'ta muloyim tarzda suhbatlashadi.

-Tabib tabib emas, dardni boshidan o'tkazgan tabib deyishadi, deya bergan savolimizga Kamol aka shunday javob berdilar:

-Yoshligimda otam ko'p kasal bo'lardilar. Onam tuni bilan ularning boshlarida o'tirib chiqardi. Ko'pincha astagina kelib otamning yonlarida o'tirardim. Xomush holda xayol surib turgan onajonimga qarab turib yuragim ezilardi. Katta bo'lsam albatta shifokor bo'laman, deb orzu qilardim. Biz

istiqomat qilayotgan mahallamizni «Mannon tabib» mahallasi, deyishardi. U kishi biron joyda maxsus tahsil olmagan bo'lsalar ham yuzlab kishilarni turli xil giyohlar yordamida davolardilar. Yurtimizning chekka qishloqlaridan davo istab u kishining

huzuriga kelayotgan bemorlarni ko'rib, qani endi men ham xuddi shunday odamlar dardiga malham topa olsam deb o'ylandim. Maqsadim yo'lida tinmay o'qib izlandim. Mehnatlarim zoye ketmadi. 1951 yilda

dastlabki ish faoliyatimni yo'llanma asosida Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi Yuqori do'rmon qishlog'ida boshlaganman. «Toshkent shahridan zo'r duxtir kelibdi», - deyishib 50-60 kilometr lab yo'lni piyoda bosganicha bemor bolasini yoki qarindoshini olib kelgan kishilarning nigohlaridagi «tuzalib ketarmikin-a?» degan

hadik mening qalbidagi, «albatta tuzatishim kerak»,

degan qaroriga aylanardi. Erta sahardan to yarim kechgacha bemorlarni qabul qilardim. Ularning sog'ayib, aytayotgan minnatdorchiligi men uchun har qanday mukofotdan ortiqroq edi. Ha, kishilarning dardiga malham bo'lish uchun faqatgina bilim yoki tajriba kamlik qiladi. Shifo topish umidida kelgan bemorning dardini har bir shifokor o'z dardim deya yuragidan anglashi lozim. Ana shundagina dard

orqaga chekinadi. Har bir ishni siddiqidildan bajarish kishiga bir olam shodlik olib keladi. Farzandlarimga ham buni qayta-qayta ta'kidlayman.

-Oilangiz haqida bilishni istardik.

-O'g'illarim Azizxon, Lazizxon, Bahodirjonlar maktabda a'lo baholarga o'qishadi. Turmush o'rtog'im Karimaxon ham malakali shifokor.

-«Tong yulduzi» gazetasi muxlislariga tilaklaringiz.

-Yurtimizda bolalar uchun barcha sharoitlar muhayyo. Ular doimo ruhan tetik, bilimga chanqoq, kamtar bo'lib voyaga yetishsin. Hamisha o'zlariga, «bugun qanday foydali ish qildim, ertaga yana nima qilishim kerak?», deya savol berib yashasinlar...

Shifo maskanining qo'li yengil, qablari egnidagi oq xalatlari kabi beg'ubor bu insonlar bilan xayrfashar ekanman, el yurt salomatligi yo'lida aslo horimang, deb aytdim keladi.

Jamila ERDONOVA suhbatlashdi.

Sog'lom bo'ling



SOG'LOM AVLOD - SOG'LOM KELAJAGIMIZ

(Davomi. Boshi gazetaning o'tgan sonlarida)

Shoshma toychoq'im,- dedi chol to'satdan bir narsani eslagandek,- soyda bir g'arov ko'rib senga olib keldim.- U munkillab o'rnidan turdi-da, burchakdagi xurjunni titkilab, yarim gazcha keladigan g'arovni oldi.- Mana, asl-da, juda asl, senga atab qirqdim, chirog'im.

Cholning orqasidan xurjun tepasiga yetib kelgan Ali darhol g'arovni sinchiklab ko'ra boshladi.

-Qattiqligi xuddi sambitga o'xshaydi-ya, bobo.

-Ertaga bulbuldek sayraydigan nay yasab beraman senga.

-Juda chiroyli qilib yasang, bobojon,-dedi sevinchidan yuragi hapriqqan Ali.- Puflasa o'zi sayraydigan bo'lsin,xo'pmi?- deya qayta-qayta ta'kidladi u.

Qamishni avaylab tokchaga qo'ygach, chol joyiga o'ltirdi.

-Ammo toychoq'im, nay yasash nozik, mashaqqatli ish.Fahm-

farosatga qaraydi, ha, chirog'im. Ko'p odamlar buning siriga tushunmaydi, did kerak,- deya burushiq barmoqlari bilan ko'kragiga bir-ikki urib qo'ydi.- Ko'ngilohangning bulog'i!

Hayratda va chuqur xayolda o'ltirgan Alisher jiddiy tusda so'radi:

-Bobo, o'zingiz nay chalishni bilurmisiz?

Chol o'ksingan bo'ldi:

-Yoshlik qursin, ko'ngil har narsaga chopar ekan.

ALISHERNING YOSHLIGI

OYBEK

Picha bilur edim, bari esdan ko'tarilibdi.

Ali taskin ohangida shunday dedi:
-Bilasiz, bilasiz bobo. Odam bilgan hunarini nechun unutsin?!

-Yo'q, toychoq nayni sayratishni batamom unutganmen, ammo nay yasash hanuz yodimda,- dedi chol jiddiy vaziyatda.

Ali xursand va vaqtixush edi, nay xususida surishtiraverib, cholni xo'b charchatgach, to'satdan so'zini boshqa yoqqa burdi:

-Qani, bobo unutay debman, endi ertakni boshlang, sizning ajoyib ertaklaringizni eshitgali chiqqan edim.

Chol keng qulochini yoyib, kerishib olgach, Alining boshini siladi.

Chiroqqinam-ey, har kun ertak, har kun cho'pchak, hadeb qayerdan topamen ertakni? Men ertakning

konimidim!

-Cho'pchakning bitmas-tuganmas bulog'i - o'zingiz!-deya qat'iy javob berdi Ali.

Chol bolaning gapidan xursand bo'lgandek, tantanali ohangda so'z boshladi:

-Onam rahmatli cho'pchakka usta edi. Qizlar va xotinlar bilan charx yigirar ekan, cho'pchaklari qo'l kelardi, bitmas-tuganmas bir kalava edi. Chamamda o'zi to'qib aytaverardi, deyman-da, jannati xotin

edi boyoqish. Bolaligimda onamning ertaklarini ipga marjon tergandek, ko'nglimga terib o'ltirar edim, endilikda yodimda qolmabdi, eslasam barini tumanga chulg'angandek fahmlaymen.

-Rostdanmi, onangiz o'zlari ertak to'qirmidilar-a?- deya so'radi hayron bo'lib Ali.

-Onam ziyrak, har ishga aqli tez ayol edi,-deb javob berdi o'ylanib chol.- Bilgan ertaklariga o'zi qo'shib-chatib yangilarini ketma-ket to'qib, birini-biriga ulashtirib aytaverardi. Dostonlarni aytmasanmi, chirog'im, bir boshlasa tong oqarardi-yu, uning dostoni tugamasdi. O'ylab tursam, bolam bekamga o'xshashligi bor edi onamning. Ziyrak, aqli, ozoda, har ishda bilarmon, chevar ayol edi. O, o'tdi-ketdi davronlar, falak charxi hamon o'zgacha, zamon daryodek oqar ekan.

Cholning pinjiga tiqilgan Alisherning fikri xayoli shu gaplarda, jim quloq solur edi.

-Endi otangiz xususida so'zlangiz,-dedi yalingan ohangda Alisher,- u kishi ne ishda, kasbi nechuk edi? Jang qilganmidilar, ovni sevarmidilar?

-Bo'ldi, o'g'lim, bas, - deya chol o'rnidan turib xufton namozini o'qigali joynamoz yoydi.

Unga ilasha o'rnidan turgan Alisher:
-Nomozni o'qigach, hikoya qilursiz, kutib o'ltirurmen,- dedi.

-Charchadim, chirog'im, uyga bor, ertagi kunga cho'pchaklarni o'ylab qo'yurmen.

Alisher o'yladi: ha, bobo kundan-kun keksayib bormoqda, ayniqsa, daladan

horib kelgan.

-Bobojon, yaxshi uxlang, nomozdan keyin hayallamay uxlang, xo'bmi? Nayni yaxshilab yasab, bejab qo'yursiz.

-Cholning yuziga tabassum yoyilib ketdi, «xo'b-xo'b», degandek bosh qimirlatib qo'ydi.

Yodiga kelgan bir g'azalni ohista shivirlab, Alisher o'z xonasiga chiqib ketdi.

Odati bo'yicha azonda uyg'ongan chol, avvalo otlarga beda soldi, taglarini tozaladi, keyin nay yasashga kirishdi. G'arov namroq edi. Chol uning eng yaxshi joyini mo'ljallab, o'tkir pichog'i bilan bir yarim qarichcha kesib oldi. Qunt bilan ichini tozaladi, qirqilgan tomonini qirtishlab silliqiladi. Qamishni dam-badam ko'zlariga yaqin tutib aylantirar, sinchiklab qarar edi.

Kundagidan barvaqtroq uyg'ongan Alisher yuvinib, kiyinib bo'lgan hamon cholning oldiga yugurdi.

-Assalomu alaykum, bobo nayni boplabsiz-ku!- deya uning qarshisiga cho'khaladi, sevinchidan ko'zlari chaqnaq.


-Vaalaykum assalom, Sherim, nechun barvaqt turibsiz?-dedi tabassum bilan chol.- O'xshaydimi nayga? Nay ishini unutibmen, chamamda.

-Siz bilgan hunaringizni unutmaysiz, shoshirmaymen, olamda yagona qilib yasang.

Chol nayni takror-takror silliqiladi, puflab-puflab sozladi:

-Usta ko'rgan shogird bir maqomda yo'rg'alar, usta ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar, toychoq'im, bizlar usta ko'rmaganmiz-da, mayli, tavakkal. Hozircha yaxshi, chiroyli bo'ladi, chamamda...

(Davomi bor.)



YOZ FASLI

Kelinchak bahorni asta kuzatib,
Fusunkor yoz fastin qarshi oldik biz.
Fog'larning bag'rida ko'kka termulib,
Yulduzlar-la suhbat qurib qoldik biz.
Toklarda tovlanar xilma-xil uzum.
Bog'larda qip-qizil olmalar pishar,
Yesangiz umrga umr qo'shilar,
Shaftoli shitirlab ariqqa tushar,
Soylarning tabida gullar chamani,
Jannatga o'xshaydi ona yer asti.
Yashnaydi quyoshga qo'shilib kulib,
Bortiqqa rizq berib bugun yoz fasti.

Shahnoza SHOKIROVA,

Bekobod tumanidagi 31-maktabning 9- «V» sinf o'quvchisi.

KITOBCHAM

Kitobchamni qo'lindan,
Sira qo'ymayman.
Qanchalar ko'p o'qisam,
Shuncha to'ymayman.
Undagi she'r, ertaklar
Juda ham qiziq
Qiziq yoshimizga mos,
Shakllar chiziq
Yumushlarning bajarib,
Kelsang, Shohsanam,
Birgalashib o'qiyimiz
Va olamiz dam.



Mohinur IMOMOVA,
Parkent tumanidagi
44-o'rta maktabning
8-sinf o'quvchisi.

Tengdoshlaring ijodi



HAR ONING BAYRAM

O'n uch yil to'libdi mustaqillikka,
O'n uch yosh muborak bo'lsin yurtimgal!
Ozodlik, obodlik - berdi Istiqlol,
Mehnatkash xalqimga zafar va iqbol.

Charv'on yurtimning har go'shasida,
Istiqlol bayrami katta tantana.
Dillarni tark etgan qayg'u va alam,
Yurtimning har kuni, har oni bayram.

Barq urdi, yuksaldi yuksak cho'qqida,
Bayrog'ing hilpirar dunyo tog'ida.
Ona yurt go'zaldir chin ko'rkam, obod,
Istiqlol yashasin doim barhayot.

Umida NIYOZOVA,

Termiz tumanidagi 11-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

VATANGA MUHABBAT

Vatan muhabbati yuragimda jo,
U mening qalbmida yashaydi har dam,
Alamli onlarda qilib iltijo,
Va yo quvonchlarni ko'rurman baham.

Vatanni sevmog'lik ajib bir sirki,
O'zing ham bilmaysan ey, murg'ak bola.
Vatan bu - vatanmas, do'stginam, bilki,
U mushfiq dillarda quritgan qal'a!

QASHQADARYO

Sahro va yo cho'lda yashnagan,
Qashqadaryo, bahorsan ko'rkam.
Kerak bo'lsa jonimni beray,
Hadiya etay murg'ak dilni ham.

Kel, poyingga boshimni qo'yay,
Senda etay men ilk parvozni.
Abdullani o'stirgan sensan,
Shoir qilgan Jumaniyozni.

Agar sening ko'ngling olmasam,
Mansur o'zdin rozi demasman.
Agar seni madh etolmasam,
Farzandlikka loyiq emasman!

Mansur JUMAYEV,

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi
18-maktabning 6-sinf o'quvchisi.

Ota yurting - otin boshing
TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuxrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida № 022 raqami bilan 2003 yil shsh dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. Toshkent matbaa kombinatida chop etildi. Adadi - 14486 Buyurtma № J 000431

Gazetani Otabek ESHCHANOV sahifaladi. Navbatchi: Gulyuz VALIYEVA.

Manzilimiz:

700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.
Obuna indeksi: 198

Bizning elektron pochtaimiz:
ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./ faks:
(99871) 144-37-24

(Hikoya)

Gullarga qarab ham aniq vaqtni bilsa bo'larkan. Ishonmaysizmi? Men ham avvaliga ishonmagandim... Keling, yaxshisi bir boshdan gapirib beraqolay.

Dugonam Dilobar gullarni juda yaxshi ko'radi. Hovlisida kattagina gulzori ham bor.

Bir kuni soatimiz to'xtab qolibdi. Vaqtni bilgan

juda to'g'ri yuradigan jonli soatlarim. Ishonmasang, mana qara,-deb uyga kirib, qo'l soatini olib chiqdi. Qarasam, chindan ham uchdan sal oshibdi. Ehtimol, meni aldash uchun soatini to'g'rilab chiqqandir, degan o'y lop etib o'tdi hayolimdan. Tezda ko'chaga chiqib, duch kelgan yo'lovchidan soat so'radim, dugonamning gapini tasdiqladi. O'z fikrimdan o'zim uyalib

GUL SOAT

Dilobarlarnikiga chiqdim. U qandaydir gullarga qaradi-da, soat uch bo'libdi, dedi.

-Tusmollab aytmay, soatingga qarab chiqsang bo'lmaydimi?-dedim jahlim chiqib.

-Mana qaragin, na'matak yaprog'ini tashlayapti, demak soat uchdan besh daqiqa o'tdi. Ishonmasang, uyga kirib qarab chiq,- dedi dugonam.

-Axir bu gul-ku, qanday qilib undan soatni bilsa bo'ladi?-biroz hovurimdan tushib qiziqib so'radim.

-Bular mening

ketdim. Opamga vaqtni aytdim-u, o'zim ortimga qaytdim. Gulzor oralab yurgan dugonamga juda havasim keldi. U bilan anchadan buyon do'stlashamiz-u, uning bilgan narsalarini men ko'pini bilmas ekanman.

-Istasang, senga ham o'rgatib qo'yaman,-dedi u ko'zlarimdagi havasni ilg'ab. Yozib olsang, yana ham yaxshi bo'lardi...

Mana o'sha yozib olganlarim: «Hamma gullardan avval echkisoqol ochiladi. Bir soatdan so'ng na'matak g'unchalari yaprog' yozib, atrofga nafis va hushbo'y hid taratadi. Ana shu muattar

hid meni uyqudan uyg'otadi. Tonggi soat oltida qizil gul chiroy ochadi. Birozdan so'ng momaqaymoq ochiladi. Soat yettida Nilufarning yaproqlari ko'z ochadi. Sakkizta sariqgul «uyg'onadi». Feshing soat ikkida nomaqaymoq gullarini to'ka boshlaydi. Bir soatdan so'ng na'matak ham yaprog' tashlaydi.


Shom qo'na boshlaganda karnaysimon bo'lib oq, qizil rangda nomozshomgul chiroy ochadi.

-Shularning barini o'zing aniqladingmi?- qiziqib so'radim.

-Yo'q, men emas. Jonli soatni bundan ikki asr muqaddam shved botanigi Karl Linley kashf qilgan...

labiatning mo'jizasini qarang: mittigina gullarida ham bir olam siru sinoat bor. Gullar nafaqat go'zallik timsoli, oliy hakam ham ekanliklarini o'sha kuni anglab yetdim. O'zimiz sezib-sezmay o'tayotgan umrimizni sarhisob qilib turadigan gullar bilan xuddi dugonamdek samimiy do'stlashishga ahd qildim.

Nilufarxon BAHROMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi respublika
Nafis san'at litseyining 10 - «A» sinf o'quvchisi.



Bizning to'garak

XO'ROZ

Dadam opkeldi,
Bir boboq xo'roz.
Qichqirib qo'ysa,
Sevinar O'roz.


G'ayrati kelib,
Bo'lsa ham no'noq.
Yasab qo'ydi u,
Pastak bir qo'noq.

Kuchga to'lsin deb,
Berdi don, ushoq.
Berdi jo'xori,
Non, hamda oqshoq.

Uyqudan tursa,
Yo'q emish xo'roz.
Yopmagan ekan,
Katakni O'roz.



Nasiba AHMADJONOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahridagi
16 - o'rta maktab o'quvchisi.



-Voy, oymomani qaranglar, yarmi tishlangan pishloqqa o'xshaydi-ya...

Latofat BEKBO' TAYEVA.

TOPISHMOQLAR

Vog'och gulim qo'limda,
Furti kuyda sayraydi.
Quloqlarim burasam,
Ko'nglim yana yayraydi.

Bo'yi pastak tayog'im,
Yengil qushdek tayog'im.
Feshigidan puflasam,
Chalar hushtak tayog'im.

Aksing ko'rinar boqsang,
Xonaning ko'rki, fayzi.
Kuyiga mos shu ohang,
Do, re, mi, fa, sol, la, si.

Sherzod SULTONOV,
Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi
5-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9- «B» sinf o'quvchisi.



BOG'BON

Bog'bon o'rik ko'chatin,
Ekdi boqqa kuz choq'i.
Bahor fasli kelganda,
Yashnab ketibdi bog'i.

Bog'bon xursand bo'libdi,
Yana ko'chat ekibdi.
Bog'i gulga to'libdi,
Boshi ko'kka yetibdi.

Ishlab sira charchamas,
Mehnatin zavqin tuyar.
Meva-cheva ulashib,
Bolajonlarni suyar.

Go'zal SAGDULLAYEVA,
Jizzax viloyati,
Jizzax shahridagi
21 - o'rta maktab o'quvchisi.

